

Muzeylarning inson ongiga ta'siri va ijtimoiy roli

Azamat Abdurashid o'g'li Abduqodirov
Ilmiy rahbar: Azimaxon Odiljon qizi Kamolova
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada muzeylarning inson ongiga ta'siri jamiyatda muzeylarning o'rni haqida fikr yuritiladi. Muzeylarning inson ruhiyatiga ijobi ta'siri haqida undan tashqari muzeylarning paydo bo'lish tarixi o'sib kelayotgan yoshlar uchun qanday kuchga ega ekanligi bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: muzey, muzey pedagogikasi, sa'nat, inson, vatanparvarlik, insonparvalik, jasorat, sa'nat, muzeylarning rivojlanishi, ma'daniyat, muzey tarixi

The influence and social role of museums on the human mind

Azamat Abdurashid oglu Abdukodirov
Scientific supervisor: Azimaxon Odiljon kizi Kamolova
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: In this article, the impact of museums on the human mind, the role of museums in society is discussed. The positive impact of museums on the human psyche, as well as the history of the emergence of museums, the power they have for young people.

Keywords: museum, museum pedagogy, humanitarianism, courage, art, museum development, culture, museum history

San'at inson ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan kuchga ega bo'lib, O'zbekistonda san'atning turli yo'naliishlariga talab katta. Shu sababli, san'atning turli shakllari nafaqat mustaqillik yillarida, balki undan avval ham rivojlanib kelgan. San'atning muhim yo'naliishlaridan biri bo'lgan muzeylar esa insonlarning madaniy va intellektual rivojlanishida alohida o'rin tutadi. Muzeylar qadimdan shakllanib kelgan bo'lib, mustaqillik yillarida ularning soni va turlari yanada ortdi. Muzeylar tabiat va ijtimoiy hayotdan olingan original buyumlarni nafaqat moddiy boylik sifatida, balki tarixiy guvohnoma va estetik qadriyatlar sifatida saqlash maqsadida tashkil etilgan. O'zbekistonda esa muzeylar XIX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshlagan bo'lib, mustaqillikdan so'ng ular yanada rivojlandi.

Muzeylarning inson ongiga ta'siri ko'p qirrali bo'lib, ular yosh avlodda vatanparvarlik, insonparvarlik va madaniy qadriyatlarga bo'lgan e'tiborni

shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, muzeylar inson tafakkuri va ruhiy holatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatib, dunyoqarashni kengaytiradi. Jonli eksponatlarni ko'zdan kechirish orqali inson tabiiy va madaniy muhit bilan bevosita muloqotga kirishadi, bu esa uning estetik didini va ruhiyatini boyitadi. Muzey pedagogikasi sohasida olib borilgan tadqiqotlar muzeylarga tashrif buyurish insoniyat olamini kundalik tashvishlardan chalg'itib, ruhiy tetiklik baxsh etishini ko'rsatmoqda.

Muzeylarga tashrif buyurish inson ruhiyatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda, psixologik terapiya vositasi sifatida ham qo'llaniladi. Depressiya, o'z-o'ziga ishonchsizlik, diqqatning sustligi kabi muammolarga duch kelgan shaxslar uchun muzey muhitida bo'lish samarali usul hisoblanadi. Jahonda 350 milliondan ortiq inson depressiyadan aziyat chekayotganligi aniqlangan bo'lib, tadqiqotlar natijasiga ko'ra, ushbu holatlarning 60 foizi stress bilan bog'liqdir. Shu sababli, inson o'z ruhiy holatini barqarorlashtirish va kayfiyatini ko'tarish maqsadida tarixiy va madaniy muzeylarga tashrif buyurishi maqsadga muvofikdir.

O'zbekistonda mustaqillikdan so'ng muzeylar ilmiy markaz sifatida ham shakllana boshladi. Bugungi kunda eng ko'p tashrif buyuriladigan muzeylar quyidagilar:

- Temuriylar tarixi davlat muzeyi - 86,5 ming kishi;
- Xivadagi "Ichon Qal'a" majmuasi - 211,9 ming kishi;
- Buxoro davlat badiiy me'morchilik muzey-qo'riqxonasi - 399,4 ming kishi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi I.V.Savitskiy nomidagi davlat muzeyi - 48,3 ming kishi.

Muzeylar inson ruhiyatiga ta'sir qilish bilan birga, ularning ichki kechinmalarini barqarorlashtirish va terapiya sifatida ham foydali ekanligi aniqlangan. Shu boisdan ham psixologik muammolarni bartaraf etish jarayonida muzey terapiyasi usuli keng qo'llanilmoqda. Muzeylar insonlarni turli muammolardan chalg'itib, ruhiy barqarorlikni tiklashda muhim rol o'ynaydi.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda muzey pedagogikasi muhim o'rin tutadi. Ushbu pedagogik yo'nalish ilk bor G. Froydentalning "Muzey - xalq ta'limi maktabi" (1931) asarida qo'llanilgan bo'lib, bu atama yillar davomida shakllanib, bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalashning muhim vositasiga aylandi. Respublikamiz hududida muzeylarga bo'lgan talab ortib borayotganligi sababli, viloyat va tuman maktablarida ham kichik muzeylar tashkil etilmoqda. Bu esa muzey va ta'lim tizimi hamkorligining yuksak darajada yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi. Maktab o'quvchilari muzeylarga tashrif buyurish orqali tarixiy jarayonlarni chuqurroq his etish imkoniga ega bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov "Mening ajdodlarim kim bo'lgan, ibtidosi qayerda, uning oyoqqa turishi, tiklanishi, shakllanish jarayoni qanday kechgan?" degan fikrlarini ilgari surganlar. Bu so'zlar shunchaki tarixiy qadriyatlarni eslatish uchun emas, balki kelajakni barpo etishda muhim omil

sifatida aytilgan. Muzeylar esa bu jarayonda insoniyatning o‘z tarixidan xabardor bo‘lishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda dunyodagi eng mashhur muzeylardan ba’zilari quyidagilardir:

- Parijdagi Luvr muzeyi
- Sankt-Peterburgdagi Ermitaj muzeyi
- Britaniya muzeyi
- Nyu-York Metropolitan muzeyi

O‘zbekistonda ham fan va texnologiya, tabiat tarixi, san’at, arxeologiya va madaniy merosga bag‘ishlangan turli muzeylar faoliyat yuritmoqda. Shaxsiy muzeylar esa ko‘pincha muayyan shaxs yoki oila tomonidan tashkil etilgan bo‘lib, ular rassomlar, yozuvchilar, tarixiy shaxslarning hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlanadi. Masalan, meksikalik rassom Frida Kahloning uy-muzeyi uning hayot yo‘liga bag‘ishlangan bo‘lib, u o‘ziga xos muhit va madaniy tajribani taqdim etadi. Bunday muzeylar madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muzeylar insoniyat tafakkuri va madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, san’at, tarix, fan va madaniyat sohalarida bilim manbai sifatida xizmat qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning muzeylarga qaratgan e’tibori natijasida ushbu sohaning rivojlanishi yanada jadallahshmoqda. Muzeylar insonlarni nafaqat tarixiy bilimlar bilan boyitadi, balki ularning tafakkurini kengaytirib, kelajakka umid va ishonch uyg‘otadi. Shu boisdan, har bir inson madaniy merosni o‘rganish va ruhiy farovonligini oshirish maqsadida muzeylarga muntazam tashrif buyurishi lozim.

Xulosa qilib aytganda muzeylar insonlar uchun nafaqat bilim va tafakkur manbai, shuning bilan bir qatorda insonlar uchun tarixiy o‘tmishga qaytish bugungi kun bilan taqqoslash, ijtimoiy vaziyatlardan chalg‘ib uni hayotga muhabbat kalajakga ishonchini ortishi uchun poydevor vazifasini ham bajaradi. Insonlarning hissiyotlarini ijtimoiy hayotini va madaniy ongini rivojlantiradi shunday ekan o’lkamiz ko’rkiga ko’rk qoshib turadigan muzeylarni chuqurroq o‘rganishimiz shu bilab birga ularni asrab avaylashimiz maqsatga muofiq deb o’ylayman. Muzeylarni saqlash va uni jamoatchilikka yetkazish insonlarni o‘z xalqini shuningdek boshqa halqlarning ham madaniyatini tushunish uchun asosdir. Bu har bir shaxsini ijtimoiy faoligini stressdan holi bo’lishi va dam olishi uchun hizmat qilayotgan muzeylar nafaqat insonlar uchun balki turizimning rivojlanishi va mahalliy iqtisodiyotni ham qo’llab quvvatlab mahalliy biznesga ham o‘z hissasini qo’shmaqda desak mubolag’a bo’lmaydi albatta.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. N.M.O’rinova.K.L. Marayimova Muzey pedagogikasi// O’quv qo’llanmasi Farg’ona 2022.
2. Orifjonova.G Art terapiya O’quv qo’llanma _ T.: “Lesson-press” nashriyoti.

3. Muzeyshunoslik fanidan ma'ruza matni tuzuvchi: Yaqubov Akmaljon Sayidirasulovich. Samarqand_2025
4. Go'Zal Xolmuhammad Qizi Rustamova, & Azimaxon Odiljon Qizi Kamolova (2025). Nosog'lom oila muhitida voyaga yetayotgan bolalarda ijtimoiy adaptatsiya muammosining psixologik xususiyati. Science and Education, 6 (2), 301-305.
5. Azimaxon Odiljon Qizi Kamolova, & Go'Zal Xolmuhammad Qizi Rustamova (2025). Pedagoglar faoliyati jarayonida salomatlik madaniyatining ahamiyati va o'rni. Science and Education, 6 (2), 329-333.
6. Saidbek Dilmurod O'G'Lij Aliqulov, & A.O.Kamolova (2025). Talabalar salomatligini saqlashda pedagogik faoliyatning ahamiyati. Science and Education, 6 (2), 313-319.